XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2021 - yil 30 - dekabr VI-37-74-8-115-K/21 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati hokimligining Moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi 22-04-10/6389-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Muzrabot tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O’zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuniga (keyingi o’rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, 2022 yilgi Muzrabot tumani (keyingi o’rinlarda Tuman deb ataladi) mahalliy byudjetiga O’zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 77,815 mlrd.so’m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha tuman mahalliy byudjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda viloyat Tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1,360 mlrd. so'm miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetlarining 2022 yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman byudjetining byudjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022 yil uchun tumanning tuman byudjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to’liq hajmda o’tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan qat’iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig’i va alkogol maxsulotlari,tamaki mahsulotlari aktsiz solig’i, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig’idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko’ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq taqsimlansin.

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar

b) Tumun mahalliy byudjetiga to’liq hajmda o’tkaziladi:

foyda solig’i (O’zbekitson Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro’yhatga muvofiq yirik soliq to’lovchilar, O’zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O’zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to’lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to’lanadigan foyda solig’idan tashqari).

elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o’tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo’yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar

v) viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o’rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to’g’risidagi deklaratsiyaga asosan to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i;

benzinni, dizel yoqilg’isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz solig’i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig’imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig’imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig’imlardan, g’ildirakli transport vositalari, o’ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig’imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o’zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to’lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo’yicha olingan daromadlar;

(xar bir soliq turi bo’yicha ajratmalar normativi ko’rsatiladi)

11. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Achildiyev), Moliya bo’limi (O.Absayev), Davlat soliq Inspektsiyasi (Sh.Qurbonov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjetiprognoz ko’rsatkichlarni o’z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarning to’liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspektsiyai (Sh.Qurbonov) O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to’liq va to’g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o’z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo’yicha doimiy tahlililar o’tkazgan holda, soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to’lovlari bo’yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rish;

aylanmadan soliq turi bo’yicha soliq to’lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o’rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o’tkazish;

Bunda, mazkur yo’nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig’ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspektsiyai (Sh.Qurbonov), Kadastr agentligi tuman bo’limi (Sh.Muradov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig’ini hisoblashda ko’chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to’lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman davlat soliq inspektsiyai (Sh.Qurbonov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo’yicha xatlovlar o’tkazish;

xatlov natijalari bo’yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o’rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo’yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Muzrabot tumani bo’limi (U.Sattorov), Tuman davlat soliq inspektsiyai (Sh.Qurbonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko’rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo’yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko’rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo’llab quvatlash bo’limi (F.Normamatova) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo’yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko’rsatsin.

17. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalaridan foydalanish to’g’risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to’liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo’shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag’larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o’rnatishga va natijalari bo’yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo’naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag’larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo’shimcha mablag’larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro’yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari A.Achildiyev, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli bo’lim boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko’rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko’rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo’yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror tuman gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Muzrabot

tumani Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **E. J. Alimov**

Халқ депутатлари Музработ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-37-74-8-115-K/21-сон қарорига
1-илова

Muzrabot mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**66 462 671,0**
1	Yagona solik tulovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	3 533 000,0
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	367 000,0
3	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	11 560 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 902 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 500 500,0
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	994 500,0
7	Aksiz solig‘i	27 115 771,0
	Shu jumladan	
	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	3 683 200,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq *	1 832 000,0
9	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq **	1 111 000,0
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i ***	1 618 500,0
11	Yig‘imlar	2 704 000,0
12	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	33 400,0
13	Ijara to‘lovlari	191 000,0
14	Boshqa tushumlar	
Daromadlar hammasi		**66 462 671,0**

Халқ депутатлари Музработ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-37-74-8-115-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Muzrabot tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

Xarajatlar miqdori, Jami		**144 278 256,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	144 278 256,0
	shundan	
	xalq ta'limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash xarajatlari	0,0
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	0,0
	suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'moli uchun xarajatlar	0,0
	melioratsiya ob'ektlarini ta'mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	0,0
	Maxsus texnikalar xarid qilish uchun	0,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0,0
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	0,0
1.	**Xalq ta'limi bo'limi**	**9 112 163,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 112 163
	shundan	0,0
	xalq ta'limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlash xarajatlari	
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2.	**Maktabgacha ta'lim bo'limi**	**6 537 812,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 537 812
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3.	**O'rta maxsus kasb hunar ta'lim**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
4.	**Sog‘liqni saqlash**	**47 407 243,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	47 407 243
	shundan	0,0
	davlat tibbiyot tashkilotlari hamda viloyat aholisini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Madaniyat bo‘limi**	**1 304 969,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 304 969
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
6.	**Turizm va sport bo‘limi**	**1 497 897,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 497 897
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7.	**Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (Obodonlashtirish)**	**8 058 238,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 058 238
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**44 828 886,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	44 828 886
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9.	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**520 642,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	520 642,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**2 102 545,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 102 545

	suv nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste’moli uchun xarajatlar	
	melioratsiya ob’ektlarini ta’mirlash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11.	**Fermer xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	**735 234,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	735 234
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12.	**Veterinariya bbo‘limi**	**1 120 686,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 120 686
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13.	**Tibbiy ijtimoiy xizmatlar**	**7 200,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 200
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14.	**Bandlik bosh boshqarmasi**	**713 831,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	713 831,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15.	**Iktisodiyot va xududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshkarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16.	**Moliya bosh bo‘limi**	**939 861,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	939 861,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	
17.	**Davlat hokimiyat organlari**	**5 645 153,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 645 153,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18.	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**59 318,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	59 318
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19.	**Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 042 360,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 042 360
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20.	**Xalk kabulxonasi**	**35 850,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	35 850,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21	**Viloyat hokimligi rasmiy mehmonlar qabullar uyi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22.	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23.	**Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
24.	**Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
25.	**Monoliyaga karshi kurashish qo‘mitasi viloyat boshkarmasi**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
26.	**Xalk deputatlari tuman Kengashi kotibiyati**	**194 926,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	194 926,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
27.	**ZAHIRA JAMG‘ARMASI**	**1 360 474,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	*1 360 474,0*
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
28.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**6 870 393,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 870 393,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
29.	**Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**509 375,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	509 375,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
30.	**Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (MFYlar)**	**3 673 200,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 673 200**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
31.	**Boshqa tashkilotlar**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Халқ депутатлари Музработ туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-37-74-8-115-K/21-сон қарорига
3-илова

Soliqlar va yig‘imlardan tuman mahalliy byudjetlariga 2022 yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

Aylnmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq *	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq **	Yuridik shaxslar yer solig‘i ***	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to‘lovlari
100	100	100	100	50	50	80	100	100	50	100	20	100

** Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq viloyat byudjtega yo‘naltiriladi.

*** Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan yuridik yer solig‘i viloyat byudjtega yo‘naltiriladi.

Yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha tushumlar viloyat byudjetiga yo‘naltiriladi.

Халқ депутатлари Музработ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-37-74-8-115-K/21-сон қарорига
4-илова

2022 yil uchun tuman byudjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Muzrabot tumani	66 462 671	**144 278 256**

Халқ депутатлари Музработ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-37-74-8-115-K/21-сон қарорига
5-илова

Tuman byudjetiga 2022 yilda ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Muzrabot tumani	**77 815 585,0**

Халқ депутатлари Музработ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-37-74-8-115-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 yilda tuman mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
	JAMI	**697 510,0**
	shundan	
1	Muzrabot tumani	**697 510,0**